

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

DAVOLASH FAKULTETI



Davolash fakultetini dekani

**BAXROM ABDULLAJONOV
USTAMJONOVICH**

E-mail: abdullajonov@umail.uz

Tel: +998914874094

DAVOLASH FAKULTETI TARIXI VA FAOLIYATI

Davolash fakulteti 1955-yil oktyabr oyida tashkil qilingan. Davolash fakultetining birinchi dekani dotsent K.A.Zufarov bo'lgan. O'sha paytda fakultetda 10 ta kafedra bo'lib, 120 nafar talaba o'qigan, keyinchalik talabalar ko'payib, kafedralar soni ham orta boshlagan.

1957-yilga kelib davolash fakulteti dekani lavozimiga bioximiya kafedrasini mudiri, dotsent M.G'.Mirzakarimov tayinlangan. Talabalar soni 470 taga etgan. 2 nafar dekan o'rinbosari faoliyat ko'rsatgan.

Ular o'quv jarayonini, davomat va o'zlashtirishni yaxshilash bilan birga, talabalarni maxsus adabiyotlar bilan ta'minlash borasida ham katta ish olib borganlar.



1970-yilga kelib fakultet dekani lavozimiga yuqumli kasalliklar kafedrasini mudiri professor K.M.Mirzaev tayinlandi. Professor K.M.Mirzaev o'zining tashabbuskorligi, bilimdonligi, ishchanligi bilan fakultet uchun beminnat xizmat qildi.

Professor K.M.Mirzaev nafaqat fakultet miqyosida, balki institut, viloyat, qolaversa, respublika miqyosida ko'p xayrli ishlar qildi.

K.M.Merzayev

1970-1984 yillar

Fakultetga 1984-1985 yillarda professor SH.A.Hamidov, 1986-1988 yillarda dotsent S.H.Madaminov rahbarlik qildi. 1988 yilda fakultetga travmatologiya,

ortopediya va neyroxirurgiya kafedrasida dotsenti, yosh, tajribali olim N.M.Qurbonov dekan etib tayinlandi. U o'zining tashkilotchiligi, harakatchanligi tufayli tez orada jamoada obro'-e'tibor qozondi va 1996 yilgacha samarali faoliyat ko'rsatdi.



SH.A.Xamidov

1984-1985 yillar



N.M.Qurbomov

1988-1996 yillar

1996-yili professor SH.Q.Qodirov dekan lavozimida faoliyat olib bordi.

1997-1999 yillarda 6–7-kurs jarrohlik kasalliklari kafedrasida professori G'.M.Xojimatov dekan lavozimida samarali mehnat qildi.



**SH.Q.Qodirov 1996-
1997 yillar**



**G'.M.Xadjimatov
1997-1999 yillar**

1999-yili fakultet dekani lavozimiga 6–7-kurs jarrohlik kafedrasida professori A.K.Botirov tayinlandi.

2005-yilda fakultet dekani lavozimida ish olib borgan travmatologiya, ortopediya va HDJ kafedrasining mudiri professor Q.T.Xudoyberdiev o'zining talabchanligi, izlanuvchanligi bilan ajralib turdi.

2005-2008 yillarda fakultet va gospital jarrohlik kafedrasida professori, tibbiyot fanlari doktori A.M.Mehmonov fakultet dekani lavozimida samarali mehnat qildi.



**A.K.Botirov 1999-
2005-yillar**



**F.T.Xudoyberdiyev
2005-yilli**

Hozirgi kunda fakultet tasarrufida 14 ta kafedra bo'lib, ular, asosan, institut o'quv binosi va institut klinikasi bazasida joylashgan.

Davolash fakultetida 4 ta yo'nalish bo'yicha jami 1596 nafar talaba tahsil olmoqda: davolash ishi yo'nalishida 1263 nafar, kasb ta'limi (tibbiy pedagogika) yo'nalishida 203 nafar va oliy hamshiralik ishi yo'nalishida 130 nafar talabaga 489 nafar professor-o'qituvchi ta'lim bermoqda: ularning 44 nafari fan doktori, professorlar, 147 nafari fan nomzodlari va dotsentlar, 44 nafari katta o'qituvchi, 254 nafari assistent va o'qituvchidir. Fakultetda professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati 39% dan yuqori bo'lib, respublika tibbiyot institutlari fakultetlari orasida yaxshi ko'rsatgich hisoblanadi.

Bugungi kunda fakultetda 5 nafar dekan o'rinbosarlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular umumiy jarrohlik kafedrasida dotsenti – J.T.Ahmadaliev, Rehabilitologiya va jismoniy tarbiya kafedrasida assistenti – Utanov Zafar Muxammadovich, Dermatovenerologiya kafedrasida assistenti – Aliev Lazizbek Muxammadjonovich, Otorinoloringologiya kafedrasida assistenti – Xusanov Shoyatbek Rustamjonovich, davolash fakultetida ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari – Karimov Ulug'bek Dilmurodjonovichlar.



Davolash fakulteti hodimlari



Davolash fakultetini dekan o`rinbosari
Axmadaliyev Jo`ravov Tadjibayevich,
1-2-3 kurslarga ma'sul.

e-mail: axmadaliyevjo`raxon@umail.uz

Tel: +99893 429-51-40



Davolash fakultetini dekan o`rinbosari
Utanov Zafar Muxammadovich,
4-kurslarga ma'sul.

e-mail: zafarutanov@umail.uz

Tel: +99897 997-38-00



Davolash fakultetini dekan o`rinbosari
Aliyev Lazizbek Muxammadjonovich,
5-kurslarga ma'sul

e-mail: Aliyevlaziz@umail.uz

Tel: +99894 439-58-30



Davolash fakultetini dekan o'rinbosari

Xusanov Shoyatbek Rustamjonovich,

6-7-kurslarga ma'sul

e-mail: xusanovshoyatbek19872604@umail.uz

Tel: +99894 567-78-87



Davolash fakultetini ma'naviyat va ma'rifat
ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari

Karimov Ulug`bek Dilmurodjonovich

Tel: +99893 440-42-42



Davolash fakultetini uslubchisi

Sultonov Qudratillo Ismoilovich

e-mail: sultonovq@mail.ru

Tel: +99891 478-12-42

Fakultetda faol ishlab borayotgan, respublikaga dong‘i ketgan tajribali professor-o‘qituvchilar Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari mehnatkashlarining sog‘ligini muhofaza qilish borasida beminnat otaliq ishlarini olib bormoqdalar. Fakultetda talabalarning samarali ta‘lim olishini ta‘minlash maqsadida o‘quv jarayoniga interaktiv o‘qitish usullari, innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Buning natijasida bir qator talabalarimiz Respublikamiz miqyosida yutuqlarga ega bo‘lmoqda.

№	F.I.SH.	Kursi	Erishgan yutug‘i
1	Gilmanov Doniyor	7 – kurs	<i>Prezident stipendiyasi g‘olibi 2005 yil</i>
2	Mamajonova Nodira	7 – kurs	<i>Prezident stipendiyasi g‘olibi 2006 yil</i>
3	Nosirov Muzaffar	7 – kurs	<i>Prezident stipendiyasi g‘olibi 2007 yil</i>
4	Zoxidov Maqsad	7 – kurs	<i>Prezident stipendiyasi g‘olibi 2010 yil</i>
5	Ziyaev YAhyo	7 – kurs	<i>Prezident stipendiyasi g‘olibi 2011 yil</i>
6	Adashaliev Axrorbek	7 – kurs	<i>Prezident stipendiyasi g‘olibi 2013 yil</i>
7	Jaloldinov Davron	4 – kurs	<i>Rektor stipendiyasi g‘olibi 2013 yil</i>
8	Mirzaabdullaxojieva Odina	6 – kurs	<i>O‘zbekiston Respublikasi vrachlar assotsiatsiyasi stipendiyasi g‘olibi 2013 yil</i>
9	Ataxodjaev Xojiakbar	4 – kurs	<i>“YUrt kelajagi” tanlovi Respublika bosqichi g‘olibi 2013 yil</i>
10	Qayumov Kozim	4 – kurs	<i>“Yurt kelajagi” tanlovi Respublika bosqichi g‘olibi 2013 yil</i>
11	Nazarov Xumoyun	3 – kurs	<i>Patologik fiziologiya fan olimpiadasi 1 – o‘rin</i>
12	Abdullaev Javlon	7 – kurs	<i>Jarroxlik fan olimpiadasida 3 – o‘rin</i>

№	F.I.SH.	Kursi	Erishgan yutug‘i
13	Qayumov Kozim	5 – kurs	<i>“YUrt kelajagi” tanlovi Respublika bosqichi g‘olibi 2014 yil</i>
14	Tursunov Asilbek	6 – kurs	<i>O‘zbekiston Respublikasi vrachlar assotsiatsiyasi stipendiyasi g‘olibi 2014 yil</i>
15	Mirzaabdullaxojieva Odina	7 – kurs	<i>Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasi g‘olibi 2014 yil</i>
16	Raximberdiev Shoxrux	7 – kurs	<i>Prezident davlat stipendiyasi g‘olibi 2014 yil</i>
17	Muxtorov Rasuljon	4 – kurs	<i>Mikrobiologiya fan olimpiadasi 1 – o‘ring‘olibi 2017 yil</i>
18	Abdulxamidov Muzaffar	3 – kurs	<i>Normal fiziologiya fan olimpiadasi 2 – o‘ring‘olibi 2017 yil</i>
19	Usmanova Moxinur	6 – kurs	<i>«Islom Karimov» stipendiyasi g‘olibi 2017 yil</i>
20	Soliyev Javohir	7 – kurs	<i>Prezident stipendiyasi g‘olibi 2017 yil</i>

Bugungi kunda fakultetimiz kafedralari to‘liq kapital ta‘mirdan chiqarildi



Davolash fakulteti tasarrufidagi kafedralarning bugungi kundagi holati

Kafedralarda eng zamonaviy kompyuter texnologiyalari, multimedia dasturlari, internet ma‘lumotlari, elektron adabiyotlar keng qo‘llanilmoqda. Barcha kafedralar kompyuter, printer, skaner, multimedia, kodoskop kabi elektron

o'qitish vositalari bilan ta'minlangan, bu vositalardan ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlar o'tishda keng foydalanilmoqda.

Misol tariqasida "Bolalar travmatologiyasi" kursida markazlashgan ma'ruza va amaliy mashg'ulot o'tish jarayonini keltirish mumkin.



Bu usulning afzalligi shundaki bir vaqtning o'zida bir necha o'quv xonalarida mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulot yoki ma'ruza o'tish mumkin.

ADTI klinikalari bazasida joylashgan fakultativ gospital jarrohlik, umumiy jarrohlik, 6-7 kurs jarrohlik kasalliklari va urologiya kafedralarida "Telemeditsina" dasturi ishga tushirilgan.

Bu usul o'z navbatida bir qator qulayliklarga ega. Telemeditsina yordamida talabalar tashrih jarayonini to'g'ridan-to'g'ri tashrih vaqtida o'quv xonasidan chiqmasdan bir necha xonada bir vaqtda ko'rishlari mumkin. Bundan tashqari tashrih xonasidagi jarrohlar bilan muloqot qilishi, qiziqtirgan savollariga javob olishi mumkin. Yana telemeditsina tizimi yordamida tashrih jarayonini kompyuter xotirasiga, CD diskka yozib olishlari, keyinchalik qaytadan ko'rib muhokama qilishlari mumkin.

Davolash fakulteti kafedralari xodimlari va talabalari ishtirokida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion texnologiyalardan va internet ma'lumotlaridan foydalangan holda bir necha o'nlab ilmiy konferensiyalar o'tkazmoqda.